



TARAQQIYAT TADQIQOTLARI | ИССЛЕДОВАНИЯ РАЗВИТИЯ DEVELOPMENT STUDIES

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНЛАР | НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ КОНФЕРЕНЦИИ
SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCES

Volume II, Issue-23, (November) 2024

Journal homepage: <https://inashr.uz/index.php/rid>

MELIGALIYEVA Muxlisa Umidovna

*Namangan davlat universiteti
talabasi*

Ilmiy rahbar: SODIRJONOV Muxriddin Maxamadaminovich

*Namangan davlat universiteti
Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dotsent*

O'SMIR QIZLAR HAYOTIDA DEVIATSIYA JARAYONI

Hozirgi ilm-fan kundan kunga rivojlanib, taraqqiy etib borgan zaminda yoshlarimiz ongida turli xil o'zgarishlarni kuzatishimiz mumkin. Yosh avlod faravon hayot kechirish maqsadida, o'zi uchun kerakli bo'lgan barcha qulayliklarni yaratib, zamon bilan hamnafas yashash uchun harakat qilmoqda.

Bu maqsadga erishish yo'lida qiyinchiliklar bilan emas, aksincha tez va oson erishish yo'llarini qidirishmoqda. Natijada, yosh avlod dunyoqarshlari turlicha shakllanib bormoqda va ular hayotida deviatziya jarayonlari yuzaga kelmoqda. Zamonaviy dunyoda deviant xatti-harakatlar muammosi ayniqsa keskin.

Iqtisodiy tengsizlik, ommaviy globallashuv, axborotdan erkin foydalanish, demokratiyaning rivojlanishi, shuningdek, ijtimoiy hodisalar ko'pincha o'smirlar muhitida salbiy ta'sirlarni keltirib chiqaradi. Yosh avlod o'rtasida deviant xulq-atvorning rivojlanishi va jamiyatdagi jinoyatchilik hodisalarining o'sishi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud. Noqununiy xatti-harakatlar qilish istagi bolalar va o'spirinlarning deviant xatti-harakatlari rivojlanishi bilan ortib bormoqda.

Deviant xulq-atvor muammosi uzoq vaqt davomida o'rganilgan, ammo shunga qaramay, zamonaviy dunyoda u kamroq dolzarb bo'lib qolmaydi. Ta'kidlab o'tishimiz joizki, deviant xulq-atvor, qoida tariqasida, o'smirlik davrida paydo bo'ladi. Bundan tashqari, barchaga ma'lumki, bizning davrimizda o'smirlar, boshqa har qanday davrda bo'lgani kabi, aholining eng zaif qatlamlaridan biri hisoblanadi.

Deviant xulq-atvor – bu mikroijtimoiy munosabatlar (oilalar, maktab) kichik yoshdagi ijtimoiy guruhlariga xos bo'lgan yoshga mos ijtimoiy normalar va xatti-harakatlar qoidalarini buzish bilan bog'liq deviant xatti-harakat turlaridan biri. Ya'ni, bunday xatti-harakatlarni intizomga qarshi deb atash mumkin [1].

Deviatziya (og'ish)ni guruh yoki jamiyatda ko'pchilik odamlar tomonidan qabul qilingan me'yor va me'yorlar yig'indisiga mos kelmaslik deyish mumkin. Birorta hamjamiyatda me'yorlarga to'la amal qiladigan va me'yorlardan og'adigan odamlar o'rtasida chiziq tortib ajratish mumkin emas. Xulq-atvorning umumiy qoidalarini ko'pchiligimiz buzganmiz.

Ko'pchilik kichik o'g'irliklar, masalan do'kondan biron narsaga haq to'lamay olish yoki ishxonadan pochta qog'ozi kabi mayda-chuydalarni shaxsiy manfaatlar yo'lida foydalanish uchun olib ketish xollariga yo'l qo'yganimiz. Ko'pchilik odamlar balog'atga yetmasdan turib alkogollik ichimliklar ichgan, giyohvand moddalarni tortib ko'rgan. Deviant yoki og'ayotgan xulq jamiyatda qabul qilingan me'yorlarga zid harakatlar bilan bog'liq.

O'g'ish deganda nimani tushunish zamonga bog'liq. Deviant xatti-harakatlar nisbiy buzilishlar sanaladi, ya'ni, yozilmagan normalarning buzilishi va ularning jamiyat tomonidan baholanishi, unga nisbatan ma'lum sanksiyalarni qo'llanilishi. Misol uchun yoshi keksa insonga avtobusda joy bermagan qizga faqat jamoatchilik fikri va munosabat orqali jazolash mumkin. Bunda atrofdegilar unga nisbatan pand- nasihat yoki dashnom qo'llashlari mumkin. Delikvent harakat esa yozilgan normalarni buzilishini nazarda tutadi. Misol uchun o'g'irlik. Buning uchun qonun tomonidan jazo belgilanadi [2].

Odatda deviatsiya jarayoni o'smirlik davrida yuzaga keladi. Deviant xulq-atvorning asosiy sabablari o'smirlik davrida yotadi. O'smirlik davri yoshlik davrlari ichida eng murakkabidir. Hozirgi o'smirlar o'tmishdagilarga nisbatan jismoniy, aqliy va siyosiy jihatdan birmuncha ustunlikka ega. Ularda ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o'sish oldinroq namoyon bo'lmoqda.

O'smirlik davrining yirik tadqiqotchilaridan biri nemis faylasufi va psixologi E.Shpanger (1924) o'smirlik yoshi qiz bolalarda 14-18 va o'g'il bolalarda 13-19 yoshlargacha davom etib, uning birinchi bosqichi 14-17 yoshlarga to'g'ri kelib, bu yoshda bolalikdan qutulish sodir bo'lishini izohladi. Uni "O'tish davri" deb ham atashadi, chunki bu davr mobaynida bolalikdan o'smirlikka o'tish ro'y beradi va bu jarayon o'smir rivojlanishining barcha jihatlari – fiziologik tuzilishi, aqliy, axloqiy rivojlanishida o'z ta'sirini ko'rsatadi.

O'smirlik davrida o'smir hayoti va faoliyatida jiddiy o'zgarishlar ro'y beradi, bu esa, o'z navbatida, ruhiyatning qayta shakllanishiga, tengdoshlari bilan munosabatlarida yangi shakllarni paydo bo'lishiga olib keladi. O'smirning ijtimoiy maqomi o'zgaradi, unga nisbatan kattalar tomonidan yanada jiddiyroq talablar qo'yila boshlaydi. Ma'lumki, o'smirlik nafaqat tanadagi fiziologik o'zgarishlar, balki hissiy va ruhiy beqarorlik bilan ham tavsiflanadi, shuning uchun bu davrda voyaga yetmaganlarning ijtimoiy mavqei xavf ostida bo'lgan odamlar toifasini to'ldirish imkoniyatlari ortadi. O'smirlik davrida birinchi marta umume'tirof etilgan axloqni inkor etish, har kimga va hamma narsaga qarshi chiqish, o'ziga xos qadriyatlar tizimini yaratish istagi paydo bo'ladi [3].

O'zbekona qarashlarda qadimdan qiz bola tarbiyasiga alohida e'tibor bilan qaraladi. O'zbekchilikda qizlarning yurish-turishi, gap-so'zi, o'zini tutishiyu, epchil-chaqqonligi u ko'zga ko'ringan paytdan boshlab odamlarning og'ziga tushadi. Elimizda qiz bolaning chiroyidan ko'ra, uning husni, xulqi, epchil, chaqqon, pazandayu chevarligiga ko'proq ahamiyat beriladi. O'tmish avlodlarimiz hayotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ko'z oldimizga Oybarchin, To'maris, Zebiniso, Uvaysiy, Nodira – yana yuzlab nomlarini keltirishimiz mumkin bo'lgan ayollarimiz borki, ularning shiddatkorligi, oqilaligi bilan birga ibo, hayosi bilan ham o'rnak bo'lishganligini ko'rishimiz mumkin [4].

Zamonaviy jamiyatimizda esa, o'smir qizlarning xatti-harakatlarining salbiy og'ishi alohida tashvish uyg'otadi. Jamiyatimizda o'smir qizlarning xatti-harakatlaridagi salbiy oqibatlar ya'ni, hozirda qizlar o'rtasida avj olgan turli xil psixotrop dori vositalariga o'rganib qolish, hattoki, ichkilikbozlik kabi illatlarning kelib chiqishi, ularning karakteridagi jizzakilik, o'zboshimchalik kabi odatlar, o'smir qizlarning xulq-atvorida jamiyatda qabul qilingan me'yorlardan kuzatilayotgan og'ishlar ularning kelajakdagi istiqbollariga to'siq bo'lmoqda. Hozirgi sharoitda eng muhim vazifamiz profilaktika choralari samaradorligini oshirish orqali o'smirlar deviatsiyasining o'sishini cheklashdan iborat. O'smir qizlarning xulq-atvorida jamiyatda qabul qilingan me'yorlardan kuzatilayotgan og'ishlar, bu og'ishlarning sabablarini aniqlash va tahlil qilish hamda ularning kelajakdagi istiqbollarini, keng tarqalgan deviant xulq-atvorning buzg'unchi shakllarini oldindan ko'rish zaruratini tug'dirmoqda.

Respondentlardan olingan so'rovnomada tahlili shuni ko'rsatadiki, ***"Bugungi kunda o'smir qizlarda yuzaga kelayotgan xatti-harakatlardagi og'ishning asosiy sababi nima deb o'ylaysiz?"*** – degan savolga 58% respondent oiladagi e'tiborsizlik, 9% respondent qiyinchiliklarga ro'baro kelish, 19% respondent oiladagi kelishmovchilik, 8% respondent do'stlar bilan munosabatga kirisha olmaslik, 6% respondent esa, aniq fikrga ega emasligini bildirgan.

O'smir qizlar o'rtasida deviatsiya muammolarini o'rganishga sotsiologik yondashish zarurati shaxsiy, guruh va ijtimoiy xususiyatlarni hisobga olgan holda o'smir qizlarni muayyan ijtimoiy-demografik guruh sifatida o'rganishning nazariy asoslarini asoslovchi umumlashiruvchi asarlarning yo'qligi bilan bog'liq.

Oldingi avlodga qaraganda moslashish yo'llarini tanlash uchun qattiqroq sharoitlarga ega bo'lgan zamonaviy yoshlar nafaqat o'g'il bolalar o'rtasida jinoyatchilik, alkogolizm, giyohvandlik, o'z joniga qasd qilish, shafqatsizlik va tajovuzkorlik kabi illatlar hozirgi vaqtda qizlar o'rtasida ham namoyon bo'layotganini ko'rishimiz mumkin. O'smir qizlar o'rtasida ichkilikbozlik, giyohvandlik, jinoyatchilik kabi salbiy illatlarning kuchayishi va tarqalishi, shuningdek, qochoq va boshpanasiz o'smir qizlarning ko'payishi bilan har tomonlama yordam ko'rsatish uchun maxsus muassasalar tashkil etish zarurati tug'iladi.

Endilikda bunday markazlarga ehtiyoj borki, ular quyidagilardan iborat: oilalar va bolalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish, profilaktika ishlari bilan shug'ullanuvchi, maslahat yordami markazi, amaliy yordam ko'rsatish bo'limlariga ega: hissiy va ruhiy inqirozlarning oldini olishga yordam beradigan o'smir qizlarga psixologik-pedagogik yordam markazi, nizolarni bartaraf etishda yordam berish markazi, o'smir qizlarni ijtimoiy-huquqiy himoya qilish va huquqiy yordam xizmati va boshqa muassasalarni keltirishimiz mumkin. Shunday qilib, ushbu muassasalarning birlashtirilgan ishi yoshlar va o'smir qizlar o'rtasidagi keskinlikni kamaytirishga yordam beradi [5].

Hozirgi vaqtda o'smir qizlar o'rtasida turli xilda tajovuzkor harakatlarni ko'rishimiz mumkin. Aslida, o'smirning tajovuzkor xulq-atvoriga ko'plab omillar ta'sir qilishi mumkin - oiladagi qiyin vaziyat, tarbiyaning elementar standartlari yo'qligi, o'smirlik yoshi, ijtimoiy va xulq-atvor omillari. Tajavuzkorlikning og'zaki shakli ko'pincha qizlar tomonidan qo'llaniladi, bu og'zaki haqoratdir. Og'zaki tajovuz bevosita va bilvosita bo'lishi mumkin. Afsuski, bugungi kunda qizlarimiz harakatida jismoniy tajovuzni ham uchratishimiz mumkin. Ularning o'z jahlini jilovlay olmasligi, o'zgalarga bo'lgan nafrati uni harakatda keltiradi. Ommaviy axborot vositalari va kinoda zo'ravonlik va shafqatsizlikning ustunligi tajovuzkor xatti-harakatlar o'smirlik tomonidan norma sifatida qabul qilinishiga olib keladi.

Psixologlarning ta'kidlashicha, o'smir qizlarda tajovuzkor xatti-harakatlarning oldini olish quyidagi sxema bo'yicha amalga oshiriladi - o'smirda tajovuzkorlikning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan omillarni aniqlash, tajovuzkorlikni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'smirlik davrida tajovuzkorlikning namoyon bo'lishining asosiy sababi ota-ona mehri va g'amxo'rligining yetishmasligidir. Oilalarida ishonchsizlik, zo'ravonlik va haqorat muhiti hukmron bo'lgan "mehribon" bolalar ta'lim muassasalariga moslashishlari qiyinroq, chunki ular jamiyatda shunga o'xshash muloqot namunasini olib boradilar.

Voyaga yetmagan qizlarning ijtimoiylashuvining o'ziga xos xususiyatlarini, ya'ni, qarama-qarshi jins vakillari, ota-onalari, tengdoshlari bilan muloqot qilishdagi qiyinchiliklar, tashqi ko'rinishdan norozilik balog'at yoshida bularning barchasi ko'pincha og'ish va tajovuzga ko'proq imkon yaratadi. Qizlarning har bir yosh toifasiga, o'smir qizlarning axloqiy, psixologik va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda maqsadli yondashuvni qo'llash muhimdir. O'smir qizlarda deviant xatti-harakatlarning oldini olishda oila muhim rol o'ynaydi, shuning uchun qizlarning ota-onalari bilan o'zaro munosabati faoliyatning yana bir sohasidir.

Respondentlar tomonidan berilgan natijalar shuni ko'rsatadiki, "*Oilada qiz bola tarbiyasida kimning o'rni muhim deb o'ylaysiz?*" – degan savolga 28% respondent ota, 64% respondent ona, 2% respondent aka-uka, 6% respondent esa, bobo-buvi degan javoblarni berishgan. Ya'ni ona qiz bolaning tarbiyasi uchun eng muhim shaxs hisoblanadi.

Xavf ostida bo'lgan o'smir qizlarning ota-onalari, qoida tariqasida, o'qituvchilar bilan salbiy munosabatda bo'lish harakteriga ega, shuning uchun ular ko'pincha muloqotdan qochishadi yoki tajovuzkorlik va befarqlik orqasida o'zlarining ishonchsizliklari va muammolarini yashirishadi.

Bunday vaziyatda o'qituvchilar bilan aloqa o'rnatish, ishonch va o'zaro tushunishni tiklash uchun ilk qadamdir. Hozirgi davrda o'smir qizlarda yuzaga kelayotgan hatti-harakatlari og'ishiga oiladagi e'tiborsizlik va kelishmovchilik, do'stlar bilan munosabatga kirisha olmaslik, kattalar ta'siridan qutulish, mustaqillikka erishish, yon atrofdagi do'stalari va ommaviy axborot vositalari asosiy sabab bo'lib kelmoqda.

Bunday vaziyatda ularga eng katta yordam ota-onalari tomonidan ko'rsatilishi zarur. Eng avvalo, ota-ona farzandini e'tiborsiz qoldirmasligi, farzandining bo'sh vaqti qolishiga yo'l qo'ymasligi, farzandining kimlar bilan do'st bo'lganiga ahamiyat berishi, farzandining xohish va qiziqishlarini inobatga olish kabi vazifalarni amalga oshirishi kerak. Kaykovus ota-onaning muhim vazifalaridan biri farzandi balog'atga yetgach, o'g'il bo'lsa uylantirib, qiz bo'lsa uzatib o'z burchini ado etishi kerak, deb ko'rsatadi. Ayniqsa qiz bola tarbiyasiga e'tibor berish, unga g'amxo'rlik qilish keraligini alohida qayd etadi: "Agar qizing bo'lsa uni mastura doyalarga topshirg'il, toki yaxshi parvarish qilg'aylar va kattaroq bo'lgandin so'ng muallimga topshirg'il... Balog'atga yetgandan so'ng harakat qilib erga bergil, unga shafqat va marhamat ko'rguzg'il, nedinkim qiz otaning asiri bo'lur" [6] deya ta'kidlagan edi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, zamonaviy dunyoda deviant xatti-harakatlar muammosi ayniqsa keskin. Iqtisodiy tengsizlik, ommaviy globallashuv, axborotdan erkin foydalanish, demokratiyaning rivojlanishi, shuningdek, ijtimoiy hodisalar ko'pincha o'smirlar muhitida salbiy reaksiyalarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun, agar biz o'smirlik davridan deviant xulq-atvorni aniqlash va oldini olish bilan shug'ullanmasak, bu mummo sifatida qolib ketaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alekseeva L.S. O'smirlarning ijtimoiy rehabilitatsiyasi: Gollandiya tajribasi // 1994.- 2-son.
2. Egoryshev S.V. Deviant xulq-atvor sotsiologiyasi. Ufa. 1997.-210 b.
3. Qiyin bolani tarbiyalash. Deviant xulq-atvori bo'lgan bolalar: o'rganish usuli. M.I.Rojkov. 2006.-p.239.
4. Xudoyqulov X.J, O'zbek qizining g'ururi – uning or-nomusi va odobidadur. –T.: “Dizayn-Press”, 2011. -142b
5. Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarga qarshi kurashni takomillashtirish masalalari. Ufa.: Ed. Oktabrning 40 yilligi nomidagi BDU, 1983. – 120 b.
6. Kaykovus. “Qobusnoma”. Yangi avlod, 2018. – 86-bet.
7. Maxov F.S, O'smir va bo'sh vaqt. M.:1982.
8. Gurevich P.S. Psixologiya. - M: Bilim, 1999 yil.
9. Содиржонов М. Изучение проблем человеческого капитала в этносоциологических процессах //in Library. – 2021. – Т. 21. – №. 4. – С. 59-69.
10. Sodirjonov M. M. Transformation of Social Capital in Ethnosocial Processes //НАУКА И ИННОВАЦИИ В XXI ВЕКЕ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ОТКРЫТИЯ И ДОСТИЖЕНИЯ. – 2021. – С. 159-161.
11. Sodirjonov M. SOME FACTORS OF DEVELOPMENT OF SOCIAL CAPITAL. – 2023.
12. Bakhtiyorovich, Mallabev Botirjon, and Sodirjonov Muxriddin Maxamadaminovich. "HUMAN CAPITAL IN ETHNOSOCIAL PROCESSES: DYNAMICS AND TRANSFORMATION."